

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 473 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdaviat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinova, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi	6
Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
Jumayev Olimjon Sadulloevich , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari	18
Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish	27
Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi	34
Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili	50
Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati	56
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish	61
Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya bozorining roli.....	65
Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar	71
Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций	78
Урдабаев Жарылкап Ермекбаевич , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиза Комиловна , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali foydalanish zarurati.....	89
Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi	
Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	94
Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar	114
Abdullayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi	
Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va monetar qoidalaridan foydalanishning nazariy jihatlari	119
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country	125
Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor;	
Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher	
Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	



Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution.....	133
Mirziyo Sodikov Odiljon ogli	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili	138
Ro'zmamatov Abbos Tolibjon o'g'li, magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish	144
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li, tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida	151
Sharifi Ahmad Sakhrob, mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	156
Суюнова Фотима Баходир кизи, базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognozi	161
Xatamov Nurbek Ochildiyeovich, erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'ri.....	169
G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi, doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане	174
Жуманиязова Феруза, PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalb qilish imkoniyatlari.....	179
Mamatov Bahromjon Shavkatovich, dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari	184
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna, mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (PhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'ri.....	190
Nilufar Sharipova, PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar	197
Nurillayev Jamoliddin Yarashevich, doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
O'roqov Mamurali Odil o'g'li, tayanch doktorant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi	208
Razzaqov Jasur Hamraboyevich, dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
Рузиева Дилноза Абдусаматовна, независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari	216
Saydullayev Shaxzod Sherzodovich, PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения	222
Хажиев Бахтиёр Душабоевич, dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari	227
Adizov Sardor Rashidovich, mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	231
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана	243
Мирзахалилова Азизахон Алишеровна, докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutsional investorlar faolligini oshirish	249
Sultanov Maxmud Axmedovich, dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'ri.....	254
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li, tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики	259
Отакулов Махамаджон Каримович, PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	264
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li, PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
Eshmatov Sanjar Ashirqulovich, mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	
O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari	272
Gadoyev So'hrob Jumakulovich, PhD, dotsent	
Влияние инвестиционной политики на инновационную деятельность в Республике Корея.....	277
Алимова София Розумбаевна, независимый исследователь	
Hududlarda oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'nalishlarini takomillashtirish.....	282
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich, tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potentsialni rivojlantirish.....	290
N. N. Ismatullayeva, tayanch doktorant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili	293
Ollokulova Feruza Mansurovna, PhD	



Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
Shakarova Difuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant	
Формирование кредитного портфеля современного коммерческого банка.....	304
Жураева Нодира Фузулий кизи , ассистент кафедры	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'urtalashni takomillashtirish yo'llari	310
G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	320
Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganov Zakir Gayibovich , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budjetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari	327
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mamatmurod o'g'li , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	330
Norov Akbar Ruzimamatovich	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi	335
Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba	341
N.N.Ro'ziyev	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
Nosirova Charos	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari	364
Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari	369
Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili	374
Xatamov Nurbek Ochildiyevich , erkin tadqiqotchi	
Международный опыт развития регионов путем привлечения инвестиций через рынок капитала	380
Дадаханова Саида Махаммаджон кизи , докторант	
Искусственный интеллект как инструмент управления человеческими ресурсами	386
Хайдарова Малика Шакирджановна , преподаватель кафедры	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili	396
S.T.Toshaliyeva , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyati va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
Nabiyev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish	412
Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
M.A.Saparova , talaba	
Catalyzing Sustainable Consumer Choices: A Study of Retail Advertising Strategies for Green Development.....	425
Karimova Nafisabonu Djamshidovna , PhD	
Temir yo'l transport tarmog'ining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	433
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich , DSc.	
Tashqi mehnat migratsiyasi sohasidagi davlat siyosatining yevropa amaliyoti	439
Askarov Zoxidjon Sadikjanovich , Yuridik fanlar falsafa doktori	
Влияние антикоррупционного просвещения на национальную идентичность государства	445
Моховоров Дмитрий Анатольевич , кандидат юридических наук, доцент	
Общность и специфика социальных подходов современных просветителей XX века Абдурахмана Ташканди и Абдуллы Авлони.....	449
Абборхон Асатуллоев , философия доктора (PhD)	
O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda naqd pulsiz hisob-kitoblarning o'rni	453
Nilufar Zikirullaeva Dilmurod qizi , PhD	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda bank xazinalaridan kompleks foydalanish zarurati va amaliyoti	461
Xolmamatov Farhodjon Kubayevich , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor	



Erkin iqtisodiy hududlarni moliyaviy vositalar orqali rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari va takomillashtirish yo'nalishlari.....	468
Quziev Ravshan Ramazanovich	



ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNI MOLIVAVIY VOSITALAR ORQALI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Quziev Ravshan Ramazanovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
"Moliya" kafedrası dotsenti., PhD.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarni moliyaviy vositalar orqali rivojlantirishning nazariy asoslari, amaliy holati va takomillashtirish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonaları, texnoparklar va klasterlarning moliyaviy natijalari asosida zonalarining moliyalashtirish mexanizmlarini optimallashtirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: erkin iqtisodiy hudud, moliyaviy vositalar, investitsiya, davlat-xususiy sheriklik, samaradorlik.

Abstract: This article examines the theoretical foundations, current practices, and improvement strategies for developing free economic zones in Uzbekistan through financial instruments. Based on the financial performance of special economic zones, small industrial zones, technoparks, and clusters, the paper presents scientifically grounded proposals for optimizing their financing mechanisms.

Key words: free economic zone, financial instruments, investment, public-private partnership, efficiency.

Аннотация: В данной статье рассмотрены теоретические основы, практическое состояние и направления совершенствования развития свободных экономических зон в Узбекистане посредством финансовых инструментов. На основе анализа финансовых результатов специальных экономических зон, малых промышленных зон, технопарков и кластеров разработаны научно обоснованные предложения по оптимизации механизмов их финансирования.

Ключевые слова: свободная экономическая зона, финансовые инструменты, инвестиции, государственно-частное партнёрство, эффективность.

KIRISH

Bugungi globallashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonlari sharoitida dunyo mamlakatlari o'zlarining iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish, xalqaro raqobatbardoshlikni ta'minlash va investitsiyalar oqimini ko'paytirish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) strategik vosita sifatida keng foydalanmoqda. EIZlar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, mintaqalararo nomutanosibliklarni bartaraf etish, eksport salohiyatini oshirish, shuningdek innovatsion va yuqori texnologik ishlab chiqarishlarni rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Shunga muvofiq, iqtisodiy rivojlanishning mazkur shakli turli mamlakatlarning milliy iqtisodiy siyosatlarida tobora ko'proq qo'llanilmoqda.

EIZlarning samarali faoliyat yuritishida asosiy omillardan biri sifatida moliyaviy vositalarning o'rni beqiyosdir. Bunday moliyaviy vositalar iqtisodiy zonalarining infratuzilmasini shakllantirish, kapital oqimini jalb qilish, investorlar uchun qulay sharoitlarni yaratish hamda iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Biroq moliyaviy vositalardan samarali foydalanish masalasi murakkab ilmiy-nazariy muammo bo'lib, uning yechimi mamlakatlarning ichki iqtisodiy sharoitlari, institutsional imkoniyatlari hamda xalqaro iqtisodiy muhit bilan chambarchas bog'liqdir. Shu boisdan, moliyaviy vositalardan foydalanishda eng optimal yondashuvlarni aniqlash va milliy iqtisodiy tizimlarga moslashtirish dolzarb va amaliy ahamiyat kasb etadigan vazifa sifatida ko'rilmogda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida bir qancha erkin iqtisodiy zonalar tashkil etib, ularning faoliyatini rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirmogda. Bugungi kunda O'zbekistonda mavjud EIZlarning iqtisodiy samaradorligi, investitsiyalarni jalb qilish hajmi



va eksport ko'rsatkichlarini oshirish uchun moliyaviy vositalarni takomillashtirish va diversifikatsiya qilish zarurati tobora ortmoqda. Biroq moliyaviy mexanizmlarning yetarlicha rivojlanmagani, mavjud moliyaviy instrumentlardan foydalanish samaradorligining pastligi hamda investitsiyalarni rag'batlantirishning zamonaviy vositalaridan foydalanishda mavjud cheklovlar EIZlar rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) iqtisodiy rivojlanish va investitsiyalarni jalb qilish mexanizmi sifatida iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Dastlabki nazariy asoslar sifatida Vernonning mahsulot hayotiy sikli nazariyasini keltirish mumkin. Ushbu nazariya bo'yicha, erkin iqtisodiy zonalar iqtisodiy siklning turli bosqichlarida investitsiyalarni jalb qilish va ishlab chiqarish faoliyatlarini rag'batlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi [1]. Keyinchalik Krugman tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy geografiya nazariyasi EIZlarni mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning strategik omili sifatida asoslab berdi [2].

Moliyaviy vositalarning EIZlar rivojidagi o'rnini baholash bo'yicha tadqiqotlar keng miqyosda olib borilgan. Ayniqsa, moliyaviy vositalar, jumladan, davlat-xususiy sheriklik (DXSh), subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va obligatsiyalar chiqarish kabi mexanizmlar investitsion oqimlarni oshirish va EIZ infratuzilmasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Dunyoda EIZlarni moliyalashtirish tajribasi mamlakatlar o'rtasida sezilarli farqlanadi. Masalan, Xitoy tajribasi shuni ko'rsatadiki, soliq imtiyozlari va subsidiyalar orqali zonalar rivojlantirishda davlatning faol roli muhim hisoblanadi [4]. Shu bilan birga, Janubiy Koreyada DXSh orqali xususiy kapitalni jalb qilish va obligatsiyalar chiqarish mexanizmlari keng qo'llaniladi, bu esa EIZlarning yuqori samaradorligini ta'minlash imkonini beradi [5].

Shuningdek, Singapur tajribasida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik orqali moliyaviy instrumentlarning innovatsion shakllari keng joriy qilingan. Natijada, Singapur EIZlari xalqaro miqyosda investitsiya oqimlarini samarali jalb qilishga erishgan va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda yetakchilikni qo'lga kiritgan [6].

Moliyaviy vositalarning samarali qo'llanilishida xalqaro tajribada aniqlangan bir qator umumiy muammolar mavjud. Jumladan, Voskamp va Vittig tadqiqotida moliyaviy mexanizmlarning yetarlicha diversifikatsiyalashmaganligi va byurokratik to'siqlar ko'pligi investitsion samaradorlikka salbiy ta'sir qilishi aniqlangan [7]. Yana bir tadqiqotda esa, moliyaviy instrumentlarning mahalliy iqtisodiy sharoitlarga moslashtirilmasligi va xalqaro moliya tashkilotlari bilan integratsiya zaifligi kabi muammolar ta'kidlangan [8].

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan erkin iqtisodiy hududlarga oid yondashuvlar va ularning mazmuni talqinlarida ayrim tafvutlar mavjud bo'lib, bu ilmiy-analitik bahslarning ko'lamini kengaytiradi. Jumladan, iqtisodchi olim Xujamqulov o'z tadqiqotida erkin iqtisodiy hududlarning mohiyati, maqsadi, me'yoriy-huquqiy asoslari, tasnifiy xususiyatlari, investitsion muhiti, logistik infratuzilmasi, bojxona rasmiylashtiruv bilan bog'liq masalalarni atroflicha tahlil qilgan. Shuningdek, u rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasida erkin iqtisodiy hududlarning faoliyat yuritish modellari, shuningdek offshor zonalar bilan ularning o'zaro farqlari va O'zbekistonda EIZlarning shakllanish va rivojlanish xususiyatlariga ham alohida e'tibor qaratadi [9].

Pavlov hamda Zaynalov, Aliyeva va Ruzibayeva tomonidan ilgari surilgan yondashuvga ko'ra, maxsus hududiy subyektlar bu o'z faoliyatini tashkil etish, amalga oshirish va yakunlash jarayonlarini tartibga soluvchi huquqiy normalarni o'zida mujassamlashtirgan mustaqil institut sifatida namoyon bo'ladi [10]. Mazkur yondashuv erkin iqtisodiy hududlarni faqatgina iqtisodiy-geografik makon emas, balki aniq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar maydoni sifatida ham tushunishga asos bo'ladi.

Vaxabov esa erkin iqtisodiy zonalar davlat tomonidan belgilangan umumiy xo'jalik yuritish tartibiga nisbatan imtiyozli soliq rejimi amal qiladigan alohida geografik hudud sifatida tavsiflaydi. Unga ko'ra, bunday zonalar milliy iqtisodiy makonning integral qismi bo'lib, u yerda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi cheklangan bo'ladi va ushbu hududlarda boshqa iqtisodiy makonlarga xos bo'lmagan soliq va bojxona imtiyozlari joriy etiladi [11].

Karimqulov esa erkin iqtisodiy hududni iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda kengaytirilgan mustaqillik, boshqaruvning maxsus rejimi va investorlar uchun qulay iqtisodiy va institutsional muhit bilan tavsiflanadigan makon sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha, bu kabi hududlar investorlar faoliyatining barqarorligi va prognoz qiluvchanligini ta'minlashda hal qiluvchi o'rin tutadi [12].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda muallif tomonidan qiyosiy tahlil qilish, ilmiy abstraktsiya, taqqoslash, induksiya va deduksiya kabi usullardan foydalanilgan.



TAHLIL VA NATIJALAR

Erkin iqtisodiy hududlarni moliyaviy vositalar orqali rivojlantirish konsepsiyasini samarali amalga oshirish uchun ushbu hududlarning turli tashkiliy-huquqiy shakllari, ularning iqtisodiy funksiyalari va moliyalashtirish mexanizmlari chuqur tahlil qilinishi lozim. O'zbekiston Respublikasi misolida bu borada uch asosiy shakldagi iqtisodiy hududlar faoliyat yuritmoqda: erkin iqtisodiy zonalar, maxsus iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonolari. Ushbu hududlarning har biri iqtisodiy siyosatning muayyan yo'nalishlariga xizmat qiluvchi alohida institutlar bo'lib, ularning rivojlanish mexanizmlari va moliyalashtirish infratuzilmasi o'ziga xosliklarga ega.

Erkin iqtisodiy zonalar asosan eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish, yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlarini jalb qilish va xalqaro bozorga integratsiyani ta'minlashni maqsad qilgan. Maxsus iqtisodiy zonalar esa sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish, investitsiyaviy loyihalarni muvofiqlashtirish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish uchun tashkil etilgan hududlardir. Kichik sanoat zonolari, o'z navbatida, mahalliy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, kichik va o'rta biznes uchun qulay ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratish va yangi ish o'rinlarini tashkil etishga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval. 2024-yil yanvar–iyun oylarida erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ)	Kichik sanoat zonolari (KSZ)
Amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (ishlar, xizmatlar) hajmi (QQS va aksizsiz)	mlrd. so'm	20 103,8	7 237,0
Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi	mlrd. so'm	11 292,3	980,2
O'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi	mlrd. so'm	23,3	59,9
Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi (QQS va aksizsiz)	mlrd. so'm	866,8	163,1
Hisobot davrida yangidan ochilgan ish o'rinlari soni	o'rin	7 493	5 518
Xizmatlar eksporti hajmi	ming AQSH dollari	969,8	2,0
Xizmatlar importi hajmi	ming AQSH dollari	618,5	159,0
Foyda solig'ini to'laguncha bo'lgan foyda (yoki zarar)	mlrd. so'm	222,6	659,5
Hisobot davri oxirida debitor qarzdorlik	mlrd. so'm	10 635,6	1 888,7
Hisobot davri oxirida kreditor qarzdorlik	mlrd. so'm	15 887,8	2 211,4

Yuqoridagi 1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, maxsus iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonolari o'rtasida iqtisodiy faoliyat ko'lami, moliyaviy oqimlar hajmi hamda investitsion samaradorlik darajasida sezilarli tafovutlar mavjud. Jumladan, maxsus iqtisodiy zonalarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi (20,1 trln so'm) kichik sanoat zonalariga (7,2 trln so'm) nisbatan qariyb uch baravar ko'pdir. Shuningdek, investitsiyalar, xizmatlar eksporti, foyda ko'rsatkichlari va tashqi moliyaviy majburiyatlar bo'yicha ham maxsus zonalar ustunlik qiladi.

Bu holat maxsus iqtisodiy zonalarda davlat tomonidan qo'llanilayotgan moliyaviy vositalar – soliq imtiyozlari, imtiyozli kreditlar va infratuzilma subsidiyalari – iqtisodiy faoliyatni jadallashtirishda muhim rol o'ynayotganini ko'rsatadi. Biroq kichik sanoat zonolari, mahalliy tadbirkorlik subyektlari bilan bog'liq bo'lgani holda, moliyaviy resurslar cheklanganligi sababli nisbatan past natijalarga erishmoqda (2-jadval).

2-jadval. 2024-yil yanvar–iyun oylarida maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonolari, texnoparklar va klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalarining moliyaviy natijalari

Ko'rsatkichlar	Tarkibidagi korxonalar soni	Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (yoki zarar), mlrd. so'mda
Maxsus iqtisodiy zonalar	959	222,6
Kichik sanoat zonolari	3 069	659,5
Texnoparklar	2 172	2 047,6
Klasterlar	408	-273,6



2024-yilning yanvar–iyun oylaridagi moliyaviy natijalar shuni ko'rsatadiki, texnoparklar va kichik sanoat zonalarini foyda ko'rsatkichlari bo'yicha yetakchilik qilmoqda, bu esa ularning moliyaviy vositalardan nisbatan samarali foydalanganini anglatadi. Maxsus iqtisodiy zonalar ijobiy natijaga ega bo'lsa-da, ularning rentabellik darajasi pastroq. Klasterlar esa salbiy moliyaviy natija qayd etgan bo'lib, bu moliyalashtirish strategiyalarining qayta ko'rib chiqilishini talab qiladi.

Ushbu farqlar erkin iqtisodiy hududlarni moliyaviy vositalar orqali rivojlantirishda individual, zonaga xos yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, resurslarni samaradorlik asosida taqsimlash va differensial moliyaviy mexanizmlarni qo'llash dolzarb hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Erkin iqtisodiy zonalarini moliyaviy vositalar orqali rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tahlillar asosida quyidagi tizimli va strategik takliflarni ilgari surish mumkin: birinchidan, zonalarining iqtisodiy modeli, subyektlar tarkibi va hududiy sharoitlaridan kelib chiqib, har bir zonaga moslashtirilgan differensial moliyalashtirish strategiyalari ishlab chiqilishi zarur. Bu strategiyalar imtiyozli kreditlar, soliq va bojxona preferensiyalari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari, investitsion grantlar va kapital bozor vositalarini qamrab olishi kerak. Ikkinchidan, moliyaviy vositalarni diversifikatsiyalash orqali davlat byudjetiga ortiqcha yuklamalik va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Bu borada obligatsiyalar chiqarish, suveren kafolatlar, risk kapitali va innovatsion moliyalashtirish modellari (venchur fondlari, startap grantlari) asosiy yo'nalish bo'lishi lozim. Uchinchidan, moliyalashtirish samaradorligini oshirish uchun raqamli monitoring tizimlari, ochiq moliyaviy hisobotlar va real vaqtli audit mexanizmlarini joriy etish talab etiladi.

Yakuniy xulosa sifatida, O'zbekiston iqtisodiyotida erkin iqtisodiy zonalar, maxsus iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini iqtisodiy o'sishni jadallashtiruvchi muhim institutsional platforma hisoblanadi. Ularning muvaffaqiyatli faoliyati moliyaviy vositalarning qanday tanlanishi va qanday amalga oshirilishiga bevosita bog'liq. Shu bois, moliyaviy vositalar oddiy texnik moliyalashtirish vositasi emas, balki makroiqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi va iqtisodiy boshqaruvning asosiy strategik elementi sifatida qaralishi kerak. Moslashtirilgan, diversifikatsiyalangan va natijaviy yondashuv asosida shakllantirilgan moliyalashtirish siyosati O'zbekiston erkin iqtisodiy hududlarining investitsion jozibadorligini oshiradi, mintaqaviy iqtisodiy tengsizlikni kamaytiradi hamda global bozorlar bilan integratsiyani jadallashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vernon, R. (1966). International investment and international trade in the product cycle. The Quarterly Journal of Economics, 80(2), 190–207.
2. Krugman, P. (1991). Geography and trade. MIT press.
3. Farole, T. (2011). Special economic zones in Africa: Comparing performance and learning from global experiences. World Bank Publications.
4. Zeng, D. Z. (2010). Building Engines for Growth and Competitiveness in China: Experience with Special Economic Zones and Industrial Clusters. World Bank Publications.
5. Ahn, S. C., & Lee, Y. H. (2013). Public-private partnerships in infrastructure development: The South Korean experience. Public Performance & Management Review, 36(4), 635–661.
6. Yeung, H. W. C. (2002). Entrepreneurship and the internationalisation of Asian firms: An institutional perspective. Edward Elgar Publishing.
7. Voskamp, U., & Wittig, S. (2012). Financing special economic zones: Challenges and prospects. Journal of Development Policy and Practice, 2(1), 45–65.
8. Moberg, L. (2015). The political economy of special economic zones. Journal of Institutional Economics, 11(1), 167–190.
9. Karimqulov, J.I. (2019). Erkin iqtisodiy hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo'nalishlari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent: BMA, 13 bet.
10. Xujamkulov, D.Y. (2019). Erkin iqtisodiy hududlar. Darslik. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 408 bet.
11. Zaynalov, J.R., Aliyeva, S.S., Ruzibayeva, N.X. (2020). Investitsiya. Darslik. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 480 bet.
12. Vaxabov, A.V., Xojibakiyev, Sh.X., Muminov, N.G. (2010). Inostrannye investitsii. Uchebnoe posobie. – Tashkent: Moliya, 180 str.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

